

QASHQADARYONING MADANIY MEROSI

F.Xayitova

TDPU dotsent v.b.

M.Abduvasiyev

TDPU talabasi

Qashqadaryoga vohasidagi eng muhim memoriy yodgorliklardan biri bu -Oqsaroydir. Tarixiy kitoblarda bitilishicha, ushbu mahobatli inshootni qurish uchun (1380—1404 yillar.) yigirma yildan ziyod vaqt ketgan ekan. Ispan elchisi Klavixo Oqsaroy haqidagi xotiralarida «Saroyning kirish yo‘li juda uzun va darvozasi ham juda baland. Katta darvozalardan so‘ng yana boshqa darvoza bor... Hovli o‘rtasida katta hovuz bo‘lib, hovlining eni uch yuz qadam. Hovli orqali saroyning eng katta binosiga o‘tiladi. Bu binoga kirishda ham juda katta baland eshik bo‘lib, u oltin, lojuvard va koshinlar bilan mohirona bezatilgan... Bu eshik orqali to‘rt burchak shakldagi qabulxonaga kiriladi... Bu yerdan elchilarni yuqori qavatlarga olib chiqadilar. Bu yerda xonalar shunchalar ko‘pki, ularni birdaniga tasvirlashning iloji yo‘q. Saroydagi bezash ishlarning barchasi oltin va qimmatbaho toshlardan qilinganki, bunga hatto Parijning ustalari ham qoyil qolishi mumkin...», deb yozgan.

Buyuk sohibqiron Amir Temur tomonidan bunyod ettirilgan ushbu mahobatli saroyning balandligi 70 metr bo‘lgan. Hozirgi kunda ushbu tarixiy majmuadan o‘tmish dolg‘alari natijasida balandligi 38 metrga teng ikkita bino qoldiqlari qolgan, xolos. Qashqadaryoga borgan har bir sayyoh Amir Temur davlatining salobatidan darak beruvchi Oqsaroyni ko‘rmasdan qaytmasligi kerak, deb hissoblayman. Negaki, buyuk Sohibqiron bobomiz:”Kimki bizning buyukligimizga shubha qilsa, biz qurgan imoratlarga boqsin”- degan gaplarini keltirmasam bo‘lmasedi. Agarda Qashqadaryoga tashrif buyursangiz bu ibratli so‘zlar Oqsaroy peshtoqlarida o‘yib yozilganligini ko‘rishingiz mumkin.

Yana bir mahobatli me’moriy obidalardan biri bu- Langar ota majmuasidir. Bu majmua Qamashi tumanining Langar qishlog‘ida dengiz sathidan ming metr balandlikda barpo etilgan “Langar ota” masjadi va Shayx Abulhasan maqbarasi joylashgan. Masjid islam olami me’morchilik san’ati bilan mahalliy hunarmandchilik uslublari uyg‘unligida barpo etilgan. Bu me’moriy obidani Markaziy Osiyoda yagona desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Agar siz bu yerga tashrif buyursangiz masjid tomining balandligi, poydevoriga qo‘yilgan toshlarning kattaligi, ustun va yog‘ochlarning quchoqqa sig‘masligi uni o‘ta mahobatli qilib ko‘rsatishi. Masjid devorining ichki tomoniga o‘rta asrlar uslubida bezak berilgan, o‘n ikkita derazasi, mehrob va minbari tepasiga namoz farzlari, oyatlar va Fotiha surasi bitilganligi. Bundan tashqari, zarhal devor bo‘ylab ikki xil yozuv: arabcha hamda oddiy naqshga o‘xshab ketadigan noma‘lum yozuvlar muhrlanganligini ko‘rasiz. Yana siz bu yerning tabiatini va insonlar muomilasini ko‘rib, yaniki insonlarning beg‘uborligini ko‘rib lol qolishingiz mumkin.

Keyingi yodgorlik bu – Dinozavr izi Hisor qo’riqxonasi yaqinidagi Qal’ai Sheron soyining tugash qismida baland ko’kimir tosh qoyada Yura davriga oid 190-195 million yil avval yashagan 31 ta dinozavr izi mavjud. Nazarimda, bu izlar sizda unutilmas taassurotlar qoldiradi

Yana bir yodgorlik tabiat in’omi desak ham bo’ladi bu – Suvtushar sharsharasidir. Hisor qo’riqxonasi hududida tabiatning go’zal in’omi - balandligi 84 metr bo’lgan sharshara mavjud. Dengiz sathidan 2 ming 100 metr yuqoridagi ulkan tosh qoyadan tushadigan suv parchalari kishining quvnatadi. Shiddatli oqimdagи suv ko’pirib, oppoq tusga kiradi. Shuning uchun mahalliy aholi uni «Sut sharshara»si deb ham ataydi. Suvtushar mamlakatimizdagi eng uzun va sersuv sharshara hisoblanadi. Ammo qo’riqxonaning xodimlarining aytishlaricha, ushbu sharshara yilning faqat aprel va may oylaridagina paydo bo’ladi.

Yana bir yodgorlik bu Sohibqiron bobomizga tegishli bo’lga – Amir Temur g’oridir. Amir Temur g’ori Qashqadaryo viloyatida, «arslon qal’asi» ma’nosini anglatuvchi «Qal’ai Sheron» hududida joylashgan.

Afsonaga ko’ra, yosh sarkarda Kesh (Shahrisabz)ni, so’ng Samarqandni zabit yetishga kuchlarni yig’ish uchun o’z qo’shinlarini to’plib, qishni aynan shu yerda o’tkazishga qaror qilgan.

Aslida Amir Temuring yuksak martabalarga erishish yo’li shu g’ordan boshlangan. Yosh Temur nafaqat kuchni, balki fikrlarni ham bir joyga yig’ib, o’sha paytlardanoq nimani xohlayotganini va unga qanday erishishni aniq bilgan.

Keyingi yodgorlik bu o’zim tashrif buyurgan Tutak ota majmuasidir. Rivoyat qilinishicha Sohibqiron Amir Temur o’z qadami yetgan har bir manzilda dastlabki ishni bu joylarda o’tgan aziz avliyolar qabrini ziyorat qilishdan boshlagan. “Ular bilan xilvatda suhbat qurib, ko’nglimdagи maqsadimni aytib, duo tilardim. Majlislarda, bazmlarda, jang maydonlarida ulardan ko’p barokotlar topdim”, – deb yozadi Sohibqiron o’z “Tuzuklar”ida. O’shanda qishning ayozli chillasi edi. Sohibqiron o’z choparini shayxga yo’llab dediki, shayx bizni uzum va tut bilan siylasin, otlarimizni yangi o’rilgan o’t bilan boqsin, so’ngra biz ul zotning karomatlariga ishonurmiz. Shayx bu so’zlardan avvaldanoq voqif edi, tezda muridlarini mehmonga peshvoz yo’lladi. Yana aytdiki, Amir Temur qirqta otliq yigit bilan kelyapti, darhol otlarni bog’lash uchun qirqta qoziq hozirlanglar. Sohibqironni izzat-ikrom bilan kutib oldilar. Otlarni qirqta qoziqqa bog’lab, oldiga quchoq-quchoq ko’k o’t tashlayotganlarini ko’rib, amirning hamrohlari lol qoladilar. Shayx mehmonni vatani (hujra)ga taklif qildi. So’ngra bir muridga aytdi: bizga uzum bilan tut keltirgil. Murid chorboqqa chiqib qarasa, hammayoq qor, ammo bir shox husayni uzum, bir shox tut g’arq pishib, tovlanib turibdi. Bularni keltirib mehmonning oldiga qo’ydilar. Sohibqiron bildiki, shayxning valiyligi ayon. Unga ixlosi ortib, ko’p izzat-hurmat ko’rsatdi, o’zi minib kelgan uchqur otini ham shayxga nazr qildi. Ammo shayx xizmatkorlariga otini so’yishni buyurdi. Amir Temur hayratlanib kuzatib turar edi. Darhol otning oyoqlarini bog’lab, yerga qulatdilar, qonini oqizish uchun bo’ynini kichik chuqurchaga to’g’rilab, tig’ tortdilar. Shundoq uchqur tulporning so’yilganini ko’rib, amirning yuragi kuydi, ichida: “boshqa jonliq

so'yilsa tuzukroq edi”, – deb o'yladi. Shunda shayx: – Ey Amir Temur, Sizning fikringiz bizga ayondur! – dedi. Otga yaqinlashib, hassasini uning bo'ynidan yurgizgan edi, qonlar qayta yig'ildi, terisi birlashib, jarohat o'rni butkul yo'qoldi. Yana hassasi bilan uch marta urib, “Chuh” degan edi, ot pishqirdi-da, sakrab o'rnidan turib ketdi. Buni ko'rgan Amir Temur shayxning poyiga kamoli ixlos bilan bosh urdi. Ot bozori, Qoratosh, O'rtal va yana bir qancha qishloqlarning xirojini shayxga nazr qildi. O'shandan buyon har yili ro'za namozida bu qishloqqa bir qo'y, bir necha qop guruch, mutavalli va imom uchun ikkita to'n uzlusiz yetkazib turilgan. Ul zotning asl ismlari Boboyi Valiy bo'lib, Xoja Bahovuddin Naqshbandiyning jiyanı ekanlar. Taqdir taqozosi bilan Boboyi Valiy Buxorodan hozirgi Yakkabog' qishlog'ining yuqorisidagi G'achchon degan manzilga kelib, bir badavlat odamga cho'ponlikka yollanadi. Qish kunlarining birida qo'ylarni yantoqzorga yoyish uchun haydab chiqadi. Biroz vaqtdan so'ng bu yerdan o'tayotgan xizmatkorlardan biri qarasaki, cho'pon yo'q, qo'ylar atrofidan esa ikkita bo'ri aylanib, boqib yuribdi. Qorda bir kishining izlari jarlikdagi g'or tomon ketgan emish. Xizmatkor o'sha iz bilan g'orga kirsa, haligi yangi cho'pon xushro'y yigitlar va nuroniy keksalar bilan suhbatlashib o'tirgan ekan. Shunda Boboyi Valiy xizmatkorga qarab, bu yerda ko'rganlarini hech kimga aytmasligini so'raydi. Ammo haligi kishi qishloqqa qaytgan zahoti barchaga g'orda ko'rganlarini gapirib beradi. Shundan so'ng Boboyi Valiy bu yerdan ketib, hozirgi Tutak qishlog'idan manzil topgan ekan. Bu qishloq nomi esa Shayxning Sohibqironga ko'rsatgan karomati – tut va tok (uzum bilan tut) voqeasidan so'ng kelib chiqqan, deyishadi. Bu yerlar ya'ni Tutok qishlog'i ham tog' yonbag'rida joylashgan. U yerlarni manzalariyu shifobaxsh suvlari insonni xuddiki o'zga olamga tushgandek his uyg'otishi uchun xizmat qiladi.

Tog'lar kishida jasorat va o'ziga ishonchni kuchaytiradi. O'z vatanim ona yerim haqida qancha gapirsam ham oz ta'riflash uchun til ojizdek go'yo. Sizlarga birdan bir maslahatim o'z ko'zlarining ilo ko'rmoqlikdir. Tashrifingizni kutib qolaman.